



## Проблемы дефицита железа у женщин в разные периоды жизни

Материалы научно-практической конференции с  
международным участием посвященной юбилею  
д.м.н., профессора Ю.К. Джаббаровой.

Ташкент 15.01.2024

# **ПРОБЛЕМЫ ДЕФИЦИТА ЖЕЛЕЗА У ЖЕНЩИН В РАЗНЫЕ ПЕРИОДЫ ЖИЗНИ**

*Материалы научно-практической конференции с  
международным участием, посвященной юбилею  
д.м.н., профессора Ю.К. Джаббаровой*

**Сборник Тезисов**

*Ташкент 15.01.2024 г.*

## **ENDOMETRIY PATOLOGIYASI BILAN BOG'LIQ BEPUSHT AYOLLARNI DAVOLASHDA GISTEROSKOPIYANING O'RNI**

**Sh.O.Sharipova., N.Yu.Gaipova., F.I.Shukurov**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**

**Dolzarbligi.** Ayollar bepushtligini sabablari ichida bachadon omili 24-62% ni tashkil etadi. Endometriy patologiyasi ayollarning 10-15%da bepushtlikning yagona sababi bo'lib, boshqa omillar bilan birgalikda kelganda uning salmog'i 50% gacha ortadi. So'nggi yillarda ayniqsa endometriy patologiyasi bilan bog'liq bepushtlikni uchrash salmog'ini ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

Gisteroskopiyadan foydalanishning ko'p imkoniyatlari yetarlicha yoritilgan emas. Ayniqsa mazkur patologiyalarni gisteroskopik bartaraf etilishi davomida olingen biopsiya namunalarini gistomorfologik tekshiruvi va uning javobiga qarab gormonal ad'yuvant terapiyani o'tkazishga oid tadqiqotlar o'tkazilmagan.

**Tadqiqot maqsadi** endometriy patologiyasi bilan bog'liq bepushtlikni davolashda gisteroskopiyaning o'rnnini baholash.

**Material va tadqiqot usulari.** Tadqiqotga 50 nafar ayollar kiritildi. Asosiy guruxni endometriy patologiyasi bilan bog'liq bepusht 30 nafar ayollar tashkil etdi. Nazorat guruxini 20 nafar sog'lom reproduktiv yoshdagagi ayollar tashkil etdi. Bepushtlikni davomiyligi ayollarda 6-8 yilni tashkil etdi. Barcha ayollarda klinik-laborator, gormonal, transvaginal ultratovush tekshiruvi hamda gisteroskopiya tadqiqotlari o'tkazildi. Gisteroskopika «Karl Storz» endoskopik qurilmasida suyuqlik muxitida o'tkazildi. Gisteroskopik jarroxlikda endometriydan biopsiya olib gistomorfologik tadqiqot uchun jo'natildi.

**Natijalar va ularning muxokamasi.** Gisteroskopik tekshiruv o'tkazilgan 30 nafar ayoldan 21 (70%) nafarida endometriy polipi, 9 (30%) nafarida esa, bachadon bo'shilig'i bitishmalari aniqlandi. Aniqlangan bachadonichi patologiyasi turiga ko'ra ayollarda quyidagi gisteroskopik jarroxlik amaliyoti o'tkazildi, jumladan 9 (30%) nafar bachadonichi bbitishmalari aniqlangan ayollarda-gisteroskopik adegoziolizis va 21(70%) nafar endometriy polipi bilan ayollarda-gisteroskopik polipektomiya jarroxlik amaliyotlari o'tkazildi.

Olingen natijalar taxliliga ko'ra, bachadonichi patologiyasi mavjud ayollarda gisteroskopiyani qo'llash bepushtlik kelib chiqishiga asosiy sababchi patologiyalarni nafaqat aniqlash balki, ularni bir vaqtin o'zida barataraf etilishiga olib kelib, mazkur patologiya mavjud ayollarda homilador bo'lish salmog'ini 2,1 baravarga ortishiga olib keladi.

**Xulosa.** Gisteroskopika klinik asoslangan va samarador usul bo'lib, nafaqat endometriy patologiyalarni tashxislash balki ularni barataraf etish imkonini ham beradi. Endometriy patologiyasi bilan bog'liq bepushtlikni davolashda

gisteroskopiyanı qo'llash ayollarda homilador bo'lish salmog'ini 2,1 baravarga ortishiga olib keladi.

## **YALLIG'LANISH GENEZLI BEPUSHTLIGI BO'LGAN AYOLLARDA TEMIR TANQISLIGINI KELIB CHIQISH SABABLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI.**

*U.U.Abdiyeva*

*O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*I-sonli akusherlik va ginekologiya kafidrasi*

**Dolbzarligi:** Ginekologik amaliyotida ayollarning yallig'lanish genezli bepushtligi va kamqonlik bilan bog'liq bo'lgan muammolari dunyoning barcha mamlakatlariida eng og'riqli masalaligi bilan muhim hamiyatga ega. Ginekologik soha takomillashishda davom etayotgan bo'lsa-da, ayollarning yallig'lanish genezli bepushtligi va kamqonlik asoratlari hali ham yuqori. Yallig'lanish genezli bepushtligi hamda temir tanqisligi bo'lgan ayollarda normal homiladorlik kuzatiladigan ayollarga nisbatan kamqonlik hamda bepushtlik yuzaga keladi. Shu munosabati bilan ayollarning yallig'lanish genezli bepushtligi va kamqonlik bilan bog'liq bo'lgan muammolari dolzarb vazifadir.

**Tadqiqot maqsadi:** Yallig'lanish genezli bepushtligi bo'lgan ayollar uchun temir tanqisligi muammolari va kelib chiqish sabablarini hamda homiladorlikni rejalashtirish jarayonining xarakterli asoratlarini hisobga olgan holda, ayollar uchun homiladorlik natijalarini yaxshilash. O'rganilayotgan kontingentni tibbiyijitmoiy xususiyatlarini ko'rsatish. Yallig'lanish genezli bepushtligi bilan og'riyan ayollarni temir tanqisligi muammolari bo'yicha davolangan va davolanmagan guruhlarda natijalarini qiyosiy tahlil qilish.

**Tadqiqot usullari va materiallari:** Asosiy guruh - 40 nafar yallig'lanish genezli bepushtligi bo'lgan ayollar temir tanqisligi bo'yicha davo o'tkazilgan ayollar, Taqqoslash guruhi - 40 nafar yallig'lanish genezli bepushtligi bo'lgan ayollar temir tanqisligi bo'yicha davo o'tkazilmadi. Nazorat guruhi - 35 nafar somatik va genetik jihatdan sog'lom bo'lgan taqqoslanadigan ayollar. Ayollarning barcha guruhlari quyidagi tadqiqotlardan o'tadilar: umumiy klinik va ginekologik tadqiqot usullari, qonning umumiy va biokimyoiy ko'rsatkichlarni o'rganish, baktirioskopik va baktiriologik, PSR (xlamidiya, ureaplastma va mikoplazma), tos a'zolarining ultratovush tekshiruvi.

**Natijalar:** Toshkentda birinchi marta yallig'lanish genezli bepushtligi bo'lgan va temir tanqisligi bor ayollarda bepushtlikning xarakterli asoratlarini o'rganish asosida antianemik preparatlar kompleksi ishlab chiqildi. Yallig'lanish genezli bepushtligi bo'lgan va temir tanqisligi bor ayollarda bepushtlik bilan bog'liq muammolari kamaydi.

**Xulosalar:** Kichik chanoq a'zolarining yallig'lanish kasalliklari reproduktiv tizim organlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida temir tanqisligi va

<b>PROFESSIONAL SPORTNING O'SMIR QIZLAR HAYZ FUNKSIYASIGA TA'SIRI</b> Yakubboyeva Shahnoza Umidovna <sup>1</sup> Isroilova Fazilat Abduraxim qizi <sup>2</sup> Sobirova Mohichehra Rasuljonovna <sup>3</sup>	32
<b>ENDOMETRIY PATOLOGIYASI BILAN BOG'LIQ BEPUSHT AYOLLARNI DAVOLASHDA GISTEROSKOPIYANING O'RNI</b> Sh.O.Sharipova., N.Yu.Gaipova., F.I.Shukurov	34
<b>YALLIG'LANISH GENEZLI BEPUSHTLIGI BO'LGAN AYOLLARDA TEMIR TANQISLIGINI KELIB CHIQISH SABABLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI.</b> <i>U.U.Abdiyeva</i>	35
<b>HOMILADORLIKDA COVID-19 INFEKSIYASI O'TKAZGAN AYOLLARDA TUG'RUQNING KECHISHI VA CHAQALOQ HOLATINI BAHOLASH</b> Abdukomilova M. I. <sup>1</sup> , Ilmiy rahbar. T.f.d. prof. Najmutdinova D. K. <sup>1</sup>	36
<b>BACHADON BO'YNIDA O'TKAZILGAN AMALIYOTLARDAN KEYIN AYOLLARNING REPRODUKTIV FUNKSIYASIDA BO'LADIGAN O'ZGARISHLAR.</b> Abdullayeva M.R. Raximboyeva M.Sh.	37
<b>BIRIKTIRUVCHI TO'QIMA DIFFERENSIALLSH MAGAN DISPLAZIYASI MAVJUD HOMILADORLARDA HOMILADORLIK VA TUG'RUQ ASORATLARI</b> Bektemirova B.B. <sup>1</sup> , Saidjalilova D.D. <sup>1</sup>	39
<b>TUXUMDONLAR POLIKISTOZ SINDROMI SABABLI LAPAROSKOPIK JARROXLIK AMALIYOTINI O'TKAZGAN AYOLLARDA GORMONAL DISFUNKSIYANI DAVOLASHDA YANGICHA YONDASHUV</b> Islamova I.I., Abraeva N.N., Shukurov F.I.	40
<b>NAY-PERITONEAL BEPUSHTLIKNING ZAMONAVIY TAHLILI</b> Choriyeva G.Z <sup>1</sup> , Sheraliyeva D. <sup>1</sup>	42
<b>PAST TUXUMDON ZAHIRALI KECH REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA FERTILLIKNI TIKLASHDA INNOVATSION USUL</b> Axmedanova X.Z., Olimova K.J., Shukurov F.I.	43
<b>REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA BEPULSIZLIK RIVOJLANISHIDA ENDOMETIY PATOLOGIYALAR NING O'RNI</b> Axmedov I.A., Tulametova Sh.A.	44
<b>KECH REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLAR BEPUSHTLIGINI DAVOLASHDA LAPAROSKOPIK JARROXLIKNING O'RNI</b> Burxonova S.B., Gafurova E.O., Shukurov F.I.	45